

Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi hamda Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutlariga fizika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Dsc) ilmiy darajalarini berish vakolati taqdim etildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son (19.03.2021-y.) qarori qabul qilindi.

Qaror bilan 2021-2023 yillarda fizika fanlari bo'yicha ta'lif sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini ta'minlash bo'yicha Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Qarorga ko'ra, O'zbekiston Milliy universiteti, Samarcand davlat universiteti, Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti va Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutiga fizika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Dsc) ilmiy darajalarini berish vakolati taqdim etildi.

Shuningdek, Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti tuzilmasida elekrotexnika sohasida xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini o'rghanish va mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish bo'yicha byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan saqlanadigan tajriba ishlab chiqarish va konstrukturlik byurosi hamda Fanlar akademiyasi tizimiga kiruvchi fizika yo'naliishidagi ilmiy tashkilotlarda ularning byudjetdan tashqari mablag'ları hisobidan moliyalashtiriladigan marketing va tijoratlashtirish bo'limlari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, Qarorga ko'ra, 2021-yil 1-sentyabrdan:

- Oliy ta'lif muassasalarining "Fizika", "Fizika va astronomiya", "Biotibbiyot fizikasi" kabi bakalavriat ta'lif yo'naliishi talabalari o'ttasida o'tkaziladigan respublika fan olimpiadasi g'oliblari va fizika bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiiadalar sovrindorlari fizika mutaxassisliklari bo'yicha qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida magistraturaga o'qishga qabul qilinadi;
- fizika fanlari bo'yicha xalqaro va respublika olimpiadalari g'oliblarini tayyorlagan professor-o'qituvchilarga oylik maoshining 100 foizi miqdorida bir martalik pul mukofoti;
- fizika fanlari bo'yicha talabalar uchun to'garaklar olib borayotgan professor-o'qituvchilarning oylik maoshlariga 25 foiz miqdorida har oy ustama haq to'lanadi.

Shuningdek, 2022-2024 yillarda jami 21 ta oliy ta'lif muassasalarining fizika fani bo'yicha o'quv laboratoriylari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanadi.

2021/2022 o'quv yilidan oliy ta'lif tizimida fizika fanlari sohalarga moslashtirilgan holda o'qitiladi.

2021-yil 1-noyabrgacha yoshlar o'ttasida fizika fanlariga qiziqishni oshirish maqsadida "Yosh fiziklar portalı" ishga tushiriladi.